

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2026, № 4 (16)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
Сиёсий фанлари доктори (DSc), доцент
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби

Гаффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети
Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Қозимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиазарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Akbarov Ravshan Xalimovich JADIDLAR MA'RIFATCHILIK FAOLIYATINI YOYISHDA "TARJIMON" GAZETASINING O'RNI	4
2	Ахрарова Амалия Искандеровна ЭВОЛЮЦИЯ ФОРМАТОВ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ЯПОНИИ: СТАНОВЛЕНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РЕГИОНАЛЬНОГО ДИАЛОГА	14
3	Бахранов Шерзад Таштурсунович ЎЗБЕКИСТОН ССР САБЗАВОТ-ПОЛИЗ ЭКИНЛАРИ ВА КАРТОШКА ИЛМИЙ – ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИДАН	27
4	Israilov Nodir Raximjonovich XVI ASR FRANSUZ SHARQSHUNOSLARI ASARLARIDA AMIR TEMUR HAYOTI VA DAVLATCHILIK FAOLIYATINING TADQIQ ETILISHI	39
5	Kandaxarov Anvarjon Xasanovich BUXORO XONLIGIDA JO'YBOR XOJALARINING IQTISODIY QUDRATI: SHAKLLANISH OMILLARI VA IJTIMOY-SIYOSIY TA'SIRI	45
6	Mamajonov Soyibjon Xalilovich AMIR TEMUR VA TO'XTAMISHXON MUNOSABATLARI YOZEF FON XAMMER-PURGSHTAL TALQINIDA	52
7	Mahkamova Zulxumor Murodjon qizi TURKISTON ASSRNING SOLIQ SIYOSATI TARIXIDA KADRLAR TARKIBINING AKS ETISHI	58
8	Mirzayeva Zaxra Xayritdinovna KO'RGAZMA ORTIDAGI IMPERIYA: KAUFMAN DAVRIDA TURKISTONDA MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATINING NAMOYON BO'LISHI	64
9	Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich TO'SKENT VOHASINING QADIMGI VA RIVOJLANGAN ORTA ASRLAR DAVRI TARIXI VA MADANIYATIGA OID YOZMA MANBALAR XUSUSIDA	71
10	Nuridinov Turdali Qambarovich., Haydaraliyev Xushnud Muso-zoda QO'QON XONLIGIDA AHOLINING OMMAVIY ISHLARGA JALB ETILISHI TARIXSHUNOSLIGI	85
11	Nuridinov Turdali Qambarovich., Haydaraliyev Xushnud Muso-zoda QO'QON XONLIGI-XITOIY O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR XORIJIY TADQIQOTCHILAR TALQINIDA	90
12	Raxmankulova Matluba Bayxurazovna XX ASR BOSHLARIDA G'ARBDA TEMURIYLAR KITOBAT SAN'ATINING O'RGANILISHI	96
13	Razzokova Nigora Olimjon kizi INCLUSIVE EDUCATION PRACTICES AND THEIR IMPACT ON LINGUISTICALLY DIVERSE LEARNERS IN MULTICULTURAL CLASSROOMS	107
14	Sadirov Aziz Sirojiddinovich MUSTAQILLIK ARAFASIDA QASHQADARYO VILOYATIDA YO'L TRANSPORT INFRAUZILMASINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARI	113
15	Сиддиков Равшан Бердимуратович ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ ХАЛҚАРОЛАШУВИ ТАРИХИГА ДОИР (1997-2016)	120

Kandaxarov A. X.

«O'zbekiston tarixi» kafedrası dotsenti, PhD

O'zbekiston Milliy universiteti

anvar0303_82@mail.ru**BUXORO XONLIGIDA JO'YBOR XOJALARINING IQTISODIY QUDRATI: SHAKLLANISH OMILLARI VA IJTIMOIIY-SIYOSIY TA'SIRI****ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada XVI–XVIII asrlarda Buxoro xonligida Jo'ybor xojalarining iqtisodiy qudrati shakllanishining asosiy omillari hamda uning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda «Matlab ut-tolibin», «Manoqibi Sa'diya», shayboniy va ashtarxoniy hukmdorlarining farmonlari hamda boshqa tarixiy manbalar asosida Jo'ybor xojalarining yer-mulklari, vaqflari, savdo faoliyati, soliq imtiyozlari, suyurg'ollari va davlat hokimiyati bilan munosabatlari yoritilgan. Shuningdek, ularning iqtisodiy imkoniyatlari siyosiy ta'sir doirasini kengaytirgani, mamlakatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash hamda hukmdorlar legitimligini mustahkamlashda muhim o'rin tutgani asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Jo'ybor xojalari, Buxoro xonligi, naqshbandiya, shayboniylar, ashtarxoniylar, iqtisodiy qudrat, vaqf, suyurg'ol, yer-mulk, savdo, tasavvuf.

KIRISH

Naqshbandiya tariqati Xo'ja Ahror faoliyati sabab XV-XVI asrlardan boshlab davlat mafkurasiga aylandi. O'sha vaqtdan beri ko'plab hukmdorlar nafaqat Naqshbandiya tariqatining, qolaversa, Yassaviya tariqatining ham izdoshlari bo'lgan. Mohiyatan, barcha hukmdorlar, barcha davlat tuzilmalari davlat mafkurasi sifatida o'zini muayyan so'fiylik birodarligi, asosan, Naqshbandiya ta'limoti izdoshi deb tan olgan, chunki u eng ommabop va eng rivojlangan tariqat bo'lgan. Bundan tashqari, uning mafkurasi davlat mafkurasiga juda mos kelgan, ya'ni bu mafkura mohiyatan davlat tuzilmasiga qo'shilib ketgan va davlat mafkurasi sifatida tan olingan. Markaziy Osiyodagi ko'plab davlat tuzilmalari hukmdorlari – xonlar Naqshbandiya tariqati izdoshlari bo'lishgan [5].

XVI-XVIII asrlar ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-siyosiy hayotini Jo'ybor xojalarisiz tasavvur qilish qiyin. Movarounnahrda hukmronlik qilgan ikki sulola – Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida bu xonadon vakillari mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga katta ta'sir ko'rsatdilar.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Jo'ybor xojalari moddiy farovonligining asosiy manbalari avloddan-avlodga o'tib boradigan merosiy mol-mulklar tashkil qilgan. Shuningdek, ular mol-mulkining asosiy manbasini xonlar, sultonlar va badavlat shaxslar tomonidan tortiq qilib turiladigan yer-suv va qimmatbaho hadyalar tashkil qilgan. Jumladan, biror-bir yirik voqea, masalan, yangi hukmdorning taxtga o'tirishi yoki yangi yurtlar zabt etilganidan keyin amir va sultonlar bilan bir qatorda naqshbandiya-xojagon

tariqatining yo‘lboshchilari ham taqdirlanganlar. Abdullaxon 1552 yili shayboniy Qilich qora sultonni mag‘lubiyatga uchratib Nasafni egallaydi. O‘shanda mazkur viloyatdan xoja Muhammad Islomga Mudin qishlog‘i tortiq qilinadi [1; 27].

Shayboniylarning 1512 yili G‘ijduvonda Eron qizilboshlilari ustidan qozongan g‘alabasi munosabati bilan shayboniy Ubaydullaxon(1533-1539) xoja Muhammad Islomga Sumitonga tutash qishloqlardan 200 jufti gov (taxm. 1660 gektar) yer va o‘nlab qullarni tortiq qilgan. Abdullaxon 1584-1585 yillarda Badaxshon va Kulob uchun qattiq kurash olib boradi. G‘alabadan keyin xoja Sa‘dga ko‘rsatgan xizmatlari uchun 1586 yilning 11 iyunida yuborgan maktubidan ma‘lum bo‘lishicha, butun Badaxshonni tortiq qilgan. Jumladan bu haqda “Matlab ut-tolibin” da quyidagicha keltiriladi: “Sohibqiron Abdullox Bahodirxon (raximaxullox) Badaxshon viloyatini zabt etganida hazrat eshon (xoja Sa‘d)ga maktub yullab tiladikim, agar sayr tariqasida ushbu viloyatga qadam ranjida qilsalar, dinu dunyoning sarafrozligiga bois bulurlar. Hazrat eshon oliynishon xonning xoxishiga kura, Badaxshon viloyatiga junadi. Mamlakatlarni zabt etuvchi podshox Badaxshon viloyatini hazrat eshonga niyoz kildi, biroq hazrat bu mulkdan ikki yuz jufti gov ekinzordan boshqa hech narsa olmadi”[2; 149.]. Badriddin Kashmiriy ma‘lumotlariga qaraganda esa eshon har xolda anchagina yer-suv, ya‘ni Badaxshondagi Arxang saroy viloyati va Ko‘lobdagi Vaxshni o‘z tasarrufiga kiritib olgan[1; 28.].

Jo‘ybor xojalarining mamlakatdagi nufuzi mislsiz tarzda oshishi, tabiiyki mamlakatdagi boshqa ruhoniylar, ayniqsa, boshqa tariqatga mansub shayxlarning obru-e‘tibori va mavqeini ancha cheklagan. Xususan, Muxammad Tolib Jo‘ybor xojalariga raqib bo‘lgan shayxlar haqida kamroq yozsa-da, shunga qaramay, “Matlab ut-tolibin”da bu haqda ayrim ma‘lumotlarni ham aytib o‘tadi. Masalan, Badaxshon zabt qilinmasidan oldin bu o‘lkada kubroviya tariqati pirlaridan shayx Xusayn Xorazmiyning halifalaridan biri shayx Halilulloxo degan ulamo yuqori mavqega ega bo‘lgan. Biroq Abdulloxxon bilan muloqot paytida u “sarkashligi” tufayli xonning g‘azabini qo‘zg‘atadi. Shunda Xoja Sa‘d Abdullaxondan shafqat so‘rab, shayx Xalilulloxni barcha tobelari bilan Buxoroga yuborilishiga erishadi[2; 150.]. Tarixiy manbalarda va ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, XVIII asrlardan boshlab Buxorodagi tariqatlar o‘rtasida ba‘zi ixtiloflar bo‘lganligi, bu ixtiloflar ayniqsa naqshbandiya va yassaviya tariqatlari o‘rtasida yaqqol ko‘zga tashlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, bu borada M.Ismoilovning tadqiqotlarida Xalifa Xudoydodning “Bahr ul-ulum” asari shu sababli yuzaga kelgan va unda Yassaviya tariqatining afzalliklari bayon etilganligini ta’kidlab o‘tadi [3; 11].

O‘z vaqtida Tojiddin Hasanning to‘ng‘ich o‘g‘li xoja Yusufga (1595-1632) ashtarxoniylardan Imomqulixon (1611-1642), Nodir Muhammadxon (1642-1645) va Abdulazizxon bir nechtdan qishloqlarni tortiq qilganlar. Jo‘ybor xojalarining hazinasiga tushadigan naqt pul, qimmatbaho buyumlar va boshqa mol-mulklarning hisobi bo‘lmagan [1; 28.].

“Matlab ut-Tolibin” da keltirilishicha, Jo‘ybor xojalariga nafaqat Movarounnahr va Xurosonda, balki boshqa ko‘plab mamlakatlarda ham yuksak hurmat va ehtirom ko‘rsatishib, turli-tuman qimmatbaho hadyalar tortiq qilib

turishgan. Xususan, XVII asrning 20-yillarida Imomqulixon va xoji Abdurahim oralariga sovuqchilik tushganligi sababli 1628 yilda Xoja Movarounnahrni tark etishga majbur bo'ldi va hajga yo'l oladi. Ammo yo'lda avval Balx, so'ngra Hindiston safariga chiqadi. Hind diyorida uni Boburiylardan Jahongir (1605-1627) katta hurmat va ehtirom bilan kutib oladi. Jo'nab ketishi oldidan esa eshonga qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan kamar va hanjar, qimmatbaho kiyim-kechak va 50 ming rupiya naqt pul in'om qiladi. Jahongirning rafiqasi Nurjahon begim, Osafxon va Abulhasan kabi oliy amaldorlarning har biri xojaga 10 ming rupiyadan naqt pul tortiq qilishiadi. Shuningdek, Qoshg'ar, Eron va boshqa mamlakatlarning hukmdorlari ham jo'yboriylarga katta-katta hadyalar yuborib turishgan. Masalan, 1563 yil Jo'yborga Yorkand xoni Abdurashidxonning (1533-1567) elchisi qimmatbaho gazmollar, kiyim-kechak, noyob buyumlar va 20 ming tanga naqt pul bilan kelib xojalarning mulozimlariga topshirishgan [2; 92]. Xojalar Oyuqxon va Abdulkarimxon (1560-1591) kabi boshqa Qoshg'ar xonlaridan ham qimmatbaho hadyalar olib turganlar.

Xonlar Jo'ybor xojalarini yer-suv, naqd pul va qimmatbaho hadyalar bilan taqdirlash bilan chegaralanmasdan, ular bilan qavm-qarindoshlikka ham intilganlar. Xususan, Imomqulixon taxtga o'tirgach, singlisini Tojiddin Hasanga turmushga beradi va unga suyurg'ol sifatida Buxorodagi Pirmast, Hisordagi Denov hazoralarini, 20 ming xoniy naqd pul, bir necha qator tuya va ot, farroshxona, bovurchixona (oshxona) va boshqa qimmatbaho buyumlar taqdim qiladi. Vali Muhammadning opasi Tojiddin Muhammadning ukasi Abdixojaning rafiqasi bo'lgan. Abdixojaning o'limidan (1607) so'ng xon singlisini Abduraximxoja, ya'ni Abdixojaning akasiga beradi. Ushanda Abdiraximxoja suyurg'ol sifatida bir necha qishloqlar beriladi. Abdulazizxon ham xojalar bilan qarindoshlik rishtalarini bog'lagan. U qizini Yusufxojaning o'g'li Yoqubxoja beradi hamda unga yillik daromadi 20 ming xoniy bo'lgan Suyunchi qishlog'ini suyurg'ol qilib beradi [1; 29].

Movarounnahr va Xurosonning serunum yaylovlarida boqilib turgan behisob podalar va yer-suvlardan tashqari Jo'ybor xojalari O'rta Osiyoning katta shaharlarida joylashgan va o'zlariga tegishli ko'plab hunarmandchilik do'konlari, savdo rastalari, timlar, tegirmonlar, hammom va karvonsaroylardan keladigan katta daromad hisobiga ham o'z boyliklarini orttirib borganlar. Jo'ybor xojalarining ta'sir doirasi mahalliy savdo-sotiq va hunarmandchilik korxonalari, iqtisodiyotning mazkur sohalariga bog'liq bo'lgan kishilarni o'z ta'sir doirasiga olgan. Bundan tashqari, manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib aytganda, xojalar xalqaro savdo-sotiq ishlarida ham faol ishtirok etganlar. Xususan, ularning Jonmumhammad va Yormuhammad singari maxsus vakillari bo'lib, ular xoja Sa'd va xoja Tojiddin Hasanlarga qarashli savdo karvonlariga bosh bo'lib, Qozon, Moskva, Bulg'or kabi va boshqa Rossiyaning o'lkalariga hamda Qoshg'arga qatnaganlar. Shuningdek, katta shahar va qishloqlarda xojalarning maxsus vakillari bo'lib, ular yangi yer-suv va boshqa mol-mulkni sotib olish bilan shug'ullanganlar. Muhammad Tolibning ma'lumotlarida keltirilishicha, uning otasi Tojiddin Hasan o'z sarkorlariga biror bir yerda yer-suv va mulkning sotilishidan behabar qolmasliklarini qattiq tayinlagan [2; 141].

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Xoja Islomning nafaqat tariqat sohasida, balki, mamlakat tashqarisidagi xalqaro savdo-sotiq va hamkorlik ishlarida ham o'ziga hos yuqori nufuzi bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, "Manoqibi Sa'diya" asarida quyidagi voqea keltiriladi: "Janobi Mavlono Jonmuhammad tarxondan ushbu voqeani eshitganman. Uning akasi Mavlono Yormuhammad tarxon bunday degan ekan: "Kunlarning birida Onhazrat meni xizmat bilan Bulg'or shahri tarafga borishga amr etdilar. O'tlanib o'sha tarafga ketdim va xizmatni bajo keltirdim. Zarurat yuzasidan ularning podshohlarini ko'rish lozim edi. Ul zamonda bul viloyat hokimi o'rus bo'lub, kufr ahlidan edi. U o'z tilida so'radi: "Kimning odamisan va qaerdansan?" til biluvchilar va tilmochlar javob berib dedilarki, "Buxorodan va falon azizning odamlari". U hazrat Eshonning nomlarini eshitgach, menga ta'zim qilib yuqoriga taklif qildi. Majlis tugagandan so'ng u bir necha vazn baliq va bir qancha sotiladigan buyumlarni keltirishni tayinladi. O'sha yerda bo'lsak har kuni xonning oldida hozir bo'lishimga hukm berdi. Men har kuni uning oldiga borardim, biz uchun qo'y go'shti yoki hamirdan tayyorlangan ovqat olib kelishardi. Ular yeydigan go'sht halol emas edi. Qaytayotganimda u murojaat qilib Hazrat Eshon uchun sovg'alar ulashdi va menga jo'nashga ruxsat berdi" [4; 35].

Jo'ybor xojalari o'zlarining butun mamlakat bo'ylab yoyilgan behisob yer-suv va mol-mulkklarini ko'plab o'zlariga tegishli amaldorlar yordamida boshqargan. Xususan, "Matlab ut-tolibin"da keltirilishicha, ularning yer-mulklari sarkorlar tomonidan boshqarilgan va xojalarning o'z shaxsiy devonlari, daftardorlari, ya'ni barcha mol-mulkni nazorat qilib turuvchi moliyaviy idoralari ham bo'lib, bu idoralarda qirqdan ortiq mansabdorlar – qushbegi, miroxur, miri shikor, mushrif, qozi bakavul, hazinachi daftardor, mirzolar kabi va boshqa mansabdorlar faolit yuritgan [2; 142].

Jo'ybor xojalari iqtisodiy qudratining ortishida yangi yer maydonlarini xo'jalik aylanmasiga kiritish, ya'ni avval foydalanilmagan yerlarni o'zlashtirish siyosati muhim omillardan biri bo'lgan. Manbalarda qayd etilishicha, 1557–1579 yillar davomida mazkur maqsadni amalga oshirish doirasida Somonchuq, Ashpona, Sevinchi qalon kabi Buxoro atrofidagi qishloqlar, shuningdek, Chorjo'y, Marv va Vaxsh hududlarida irrigatsiya inshootlari barpo etilgan, yangi kanallar qazilib, qishloq xo'jaligi uchun yaroqli yer maydonlari kengaytirilgan. Abdulloxon II ga nisbat berilgan "Ravzat ar-rizvon" asarida keltirilgan farmonlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur jarayonlarda xojalar faoliyati markaziy hokimiyat va mahalliy boshqaruv vakillari tomonidan keng qo'llab-quvvatlangan. Jumladan, "U (Alloh) biron-bir narsaga muhtoj emas. Abdulg'oz Abdullo Bahodirxon so'zimiz. Hisor, Denov, Qubodiyon viloyatlarining arboblari, qalang'orlari va raiyat, Shahri safoda istiqomat qiluvchi aymoqlar ushbu farmonni olish bilan, oliyhzrat Qutbiddin xoja Kalonxoja, ul zotning umri ziyon bo'lsin, mulkida kanal qazilib, miroblik ajratilgan, uning vakillari hususan mazkur ishlarni, mazkur farmonni buzmasliklari va bu ishda biron-bir nuqsonga yo'l qo'ymasliklari zarur. 993-yil jumadi ul-avval oyida bitildi" [1; 31].

Davlat hokimiyatining bu kabi tashabbuslarga amaliy yordam ko'rsatgani irrigatsiya va yer o'zlashtirish ishlarining tizimli xarakter kasb etganidan dalolat beradi. Abdulloxon II ning 1585 yilda Hisor, Denov va Qubodiyon hokimlariga

yuborgan farmoni mazkur siyosatning amaliy ifodasi sifatida e'tirof etiladi. Jo'ybor xojalari ko'plab mol-mulklarga ega bo'lishi va iqtisodiy qudratining oshishiga ularning turli soliqlar va majburiyatlardan ozod qilinishining ham ma'lum darajada ta'siri bo'lgan. Ularga shayboniy va ashtarxoniylarning ko'plab xukmdorlari farmonlari asosida berilgan imtiyozlarni misol qilib keltirish mumkin. Masalan, "U (Alloh) biron-bir narsaga muhtoj emas. Abulg'azi Abdulla Bahodirxon so'zimiz. Ushbu xalqpanoh xonadoniga nasb qilingan barcha baxtu iqbol oliy hazratlarining (xoja Kalonning) ezgu niyatlari va madadlari tufayliga amalga oshdi. Shu farmon berilgani maqsad shulkim, shu ondan boshlab ma'lum bo'ladiki, Marvi shijoixon viloyatida joylashgan mulk va suyurg'ol tarkibidagi qishloqlar, naxrlar, ekinzorlar oliy darajali, ilohiyatan haqiqat yo'li posbonlari qavmining sardori, ulug' valiylarning zurriyodi, din va oliyjanoblik mevasi, donishmandlarning istiqboliga yetkazuvchi xoja Kalonga merosiy mulkdir. Bizning ravshan fikrimiz ul oliy hazratlarining ekinzorlari va boshqa mulklari to'g'risida qayg'urish bilan band ekan, buyuramizki, mazkur qishloqlar, naxrlar va ekinzorlarni ul oliy hazratlarining mulk va suyurg'ollari deb e'lon qilib, molu jihat, muqarrar, ixrojot, mirobona, ko'k, tarx, sobun va boshqa soliqlar borasida ul zotni bezovta qilmasinlar, undan biron narsa talab qilinmasin, ul hazratning mulklari merosiy deb tan olinib, uni darubast deb hisoblansin. Ul zotning yer-mulki qayta o'lchanmasin va u qilingan boshqa biron-bir narsa talab qilinmasin. Hijriy 980 yil rabi' II oyida bitildi. Kotib: xonadoni oliylari xonning sodiq xizmatkori va unga yaxshilik istovchi Haydar Muhammad munshiy, uni Ollohning o'zi kechirsin" [1; 31].

Mazkur farmon mazmuni tahlili XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida Buxoro xonligida tasavvuf vakillari, xususan Jo'ybor xojalari iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotda yuqori mavqega ega bo'lganini yaqqol namoyon etadi. Farmonda xoja Kalonga tegishli yer-mulklarning merosiy huquq asosida e'tirof etilishi, ularning davlat soliqlari va turli majburiyatlardan ozod qilinishi davlat hokimiyati tomonidan tasavvuf elitasiga berilgan keng imtiyozlarni ko'rsatadi. Bu holat tasavvuf namoyandalarning faqat diniy sohada emas, balki iqtisodiy munosabatlarda ham mustaqil va ta'sirchan kuch sifatida shakllanganini anglatadi.

Farmonda mahalliy hokimlar, amirlar va mansabdorlarga xoja mulklariga daxl qilmaslik, raiyatlarni ko'chirmaslik va qo'shimcha talablar qo'ymaslik haqida qat'iy ko'rsatmalar berilgani markaziy hokimiyat tasavvuf vakillari manfaatlarini huquqiy jihatdan himoya qilganini ko'rsatadi. Bu esa davlat va diniy elita o'rtasida o'zaro manfaatli munosabatlar shakllanganini, ya'ni tasavvuf namoyandalari hokimiyatning ma'naviy tayanchi sifatida e'tirof etilganini anglatadi. Shu bilan birga, farmonda xoja Kalon shaxsiga nisbatan yuqori ehtirom va ramziy ta'riflarning qo'llanishi tasavvuf shayxlarining karizmatik nufuzi davlat siyosatida muhim o'rin tutganini ko'rsatadi. Bunday uslubdagi hujjatlar hukmdorning diniy legitimligini mustahkamlashga xizmat qilgan bo'lib, siyosiy hokimiyatning ma'naviy asosini kuchaytirishga qaratilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda shayboniylar va ashtarxoniylar davrida mamlakat ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotida din ulamolarining o'рни va nufuzi yuqori

darajaga ko'tarilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu ayniqsa XVI asrning 50-60-yillarida Jo'ybor xojalarining faoliyatida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu holat xojalar bilan Abdullaxon o'rtasida o'rnatilgan mustahkam munosabatlar natijasida Buxoro xonligidagi mavjud siyosiy vaziyatdan kelib chiqib amalga oshirilgan. Aks holda Abdullaxonning mamlakat barqarorlikni mustahkamlash va xonlik hududlarini kengaytirish uchun olib borgan kurashlarida ma'lum to'siqlarga uchrab, harakatlari besamar ketishi ham mumkin edi. Jo'ybor xojalarining ikki yirik vakili yordamida Abdullaxon o'z siyosiy mavqeini mustahkamlashga muvaffaq bo'ldi. Bu kurashlardan o'z navbatida Jo'ybor xojalarining ham manfaatlari bor edi. Chunki ularning butun mamlakat bo'ylab joylashgan turli-tuman mol-mulklarining dahlsizligi ko'p jihatdan Abdullaxon siyosatiga ham bog'liq bo'lib, bu mulklarning dahlsizligi hukmdor farmoni bilan qonuniylashtirilib olinardi.

Umuman olganda Juybor xojalari ma'lum davlat idora uslubiga o'xshash boshqaruv idorasini tuzgan ediki, bu o'z o'rnida ularning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi kuch-qudrati va mavqeidan dalolat beradi. Zamona hukmdorlari esa ularning bu mavqelaridan o'z siyosiy maqsadlari yo'lida ham foydalanish, mamlakat va hokimiyat tayanchi sifatida ular bilan murosqa qilishga majbur edilar.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Axmedov B. Tarixdan saboqlar. Toshkent, O'qituvchi, 1994.
2. Muhammad Tolib ibn Tojiddin Hasanxoja al-Husayniy as-Siddiqiy. Matlab ut-Tolibin. O'zbek tiliga tarjima va izohlar muallifi G'ulom Karimiy va Erkin Mirkomilovlar. Toshkent, Movarounnahr, 2016.
3. Ismoilov M. Shayx Xudoydodning "Bahr al-ulum" asari Markaziy Osiyoda tasavvuf tarixiga oid muhim manba (XVIII asrning ikkinchi yarmi). Tarix fan.nom.diss...avtoref. – Toshkent, 2006.
4. Husayin as-Saraxsiy. Manoqibi Sa'diya. Xo'ja Islom maqomotlari. Forschadan X.To'raev tarjimasini. Buxoro, 2002.
5. Karimov E. Naqshbandiya tariqati. <https://www.uzanalytics.com/tarix/10360/>

Кандахаров А. Х.

PhD, доцент кафедры «История Узбекистана»

Национальный университет Узбекистана

anvar0303_82@mail.ru

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ МОГУЩЕСТВО ДЖУЙБАРСКИХ ХОДЖЕЙ В БУХАРСКОМ ХАНСТВЕ: ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ И ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ

АННОТАЦИЯ

В статье исследуются основные факторы формирования экономического могущества джуйбарских ходжей в XVI–XVIII веках и их влияние на общественно-политическую жизнь Бухарского ханства. На основе

исторических источников, включая «Матлаб ут-толибин», «Манокиб-и Са'дия», ханские грамоты и другие письменные материалы, проанализированы земельные владения, вакфное имущество, торговая деятельность, налоговые привилегии, сюргалы и взаимоотношения джуйбарских ходжей с государственной властью. Сделан вывод о том, что экономическая мощь джуйбарских ходжей способствовала расширению их политического влияния, укреплению социальной стабильности и легитимации власти правителей Бухарского ханства.

Ключевые слова: Джуйбарские ходжи, Бухарское ханство, Накшбандия, Шейбаниды, Аштарханиды, экономическое могущество, вакф, сюргал, земельные владения, торговля, суфизм.

Kandakharov A. Kh.

PhD, associate professor at the department of «History of Uzbekistan»

National University of Uzbekistan

anvar0303_82@mail.ru

THE ECONOMIC POWER OF THE JUYBAR KHWAJAS IN THE BUKHARA KHANATE: FACTORS OF FORMATION AND SOCIO- POLITICAL INFLUENCE

ABSTRACT

This article examines the main factors behind the formation of the economic power of the Juybar Khwajas in the sixteenth to eighteenth centuries and evaluates its impact on the socio-political life of the Bukhara Khanate. Drawing on historical sources, including Matlab al-Talibin, Manaqib-i Sa'diyya, royal decrees, and other documentary evidence, the study analyzes their landed properties, waqf endowments, commercial activities, tax privileges, suyurghal grants, and relations with the ruling elite. The findings demonstrate that the economic strength of the Juybar Khwajas significantly expanded their political influence, contributed to social stability, and reinforced the legitimacy of the khans' authority within the Bukhara Khanate.

Keywords: Juybar Khwajas, Bukhara Khanate, Naqshbandiyya, Shaybanids, Ashtarkhanids, economic power, waqf, suyurghal, landownership, trade, Sufism.